

## AYOLLAR VA ERKAKLAR O'RTASIDAGI ADOLAT

*Xushbakov Sho'hratjon Baxtiyor o'g'li*

*Aniq va tabbiy fanlar fakulteti "Ijtimoiy ish" yo'nalishi talabasi*

*Suyarova Dilfuza Sa'dullo qizi*

*Aniq va tabbiy fanlar fakulteti "Ijtimoiy ish" yo'nalishi talabasi*

*Ilmiy rahbar: Abbasova Maftuna Subhonovna*

*Davlat Universiteti Kattaqo'rg'on filiali o'qituvchisi*

**Annotatsiya:** ushbu maqola hozirda ko'p mamlakatlarning ichki va tashqi mummolariga yalangan, qolaversa millatlarning ham muommosi bo'lgan ayollar va erkaklarning tengligi yoki adolati haqida. Tenglik yoki adolat qaysi biri to'g'ri fikr ekanligi ham chuqur tahlil qilingan. Bu maqoladan siz, ko'pchilikka qiziq bo'lgan gender muommosiga o'zgacha yondashilgan yechimni topishingiz mumkin.

**Kalit so'zlar:** jins, gender, adolat, tenglik, erkak, muommo, g'oya, ijtimoiy adolat, rol, huquq, qonun, jamiyat, erkinlik, ayol.

**Аннотация:** данная статья посвящена равенству или справедливости женщин и мужчин, что в настоящее время является внутренней и внешней проблемой многих стран, а также проблемой наций. Равенство или справедливость, что является правильной идеей, также подверглось глубокому анализу. В этой статье вы сможете найти уникальный подход к гендерной проблеме, которая интересует многих.

**Ключевые слова:** пол, гендер, справедливость, равенство, человек, проблема, идея, социальная справедливость, роль, право, закон, общество, свобода, женщина.

**Abstract:** this article is about the equality or justice of women and men, which is currently the internal and external problems of many countries, as well as the problem of nations. Equality or justice, which is the right idea, has also been deeply analyzed. In this article, you can find a unique approach to the gender problem, which is of interest to many.

**Key words:** sex, gender, justice, equality, man, problem, idea, social justice, role, right, law, society, freedom, woman.

**Jins** (inglizcha: gender, lotincha: genus „mehribon“) — erkaklik va ayollik bilan bog'liq xususiyatlar spektri. Kontekstga qarab, bu xususiyatlar ijtimoiy tuzilmalarni (ayniqsa, gender va boshqa ijtimoiy rollar) yoki gender identifikatsiyasini o'z ichiga olishi mumkin. Gender identifikatori jinsiy orientatsiya bilan bog'liq emas.

Ba'zi hollarda „gender“ tushunchasi " jins " tushunchasining sinonimi sifatida noto'g'ri ishlatiladi. Aslida, jins va gender o'rtasidagi farq asosiy hisoblanadi, chunki ayol va erkak o'rtasidagi ko'p farqlar biologik bo'lmagan sabablarga ham ega. Gender tushunchasi aqliy, madaniy va ijtimoiy farqlarga ta'sir qiladi va jins tushunchasi faqat jismoniy (anatomik va fiziologik) farqlarga ta'sir qiladi.

„Gender“ tushunchasi feministik nazariya va gendershunoslilikning rivojlanishi tufayli keng tarqaldi. U ijtimoiy konstruktivizm nazariyasiga asoslanadi, ularning bir qator vakillari (asosan feministik mualliflar) odamlar o'rtasidagi farqlarning tabiiy kelib chiqishini shubha ostiga qo'yadilar va ularni ijtimoiy jarayonlar bilan izohlaydilar. Shunday qilib, „gender“ tushunchasi „biologiya taqdir sifatida“ haqidagi oddiy g'oyalarni tanqid qilish uchun mo'ljallangan va gender tengligi mafkurasiga ishora qiladi.

Garchi ko'pgina manbalar genderni „ijtimoiy jins“ deb ta'riflagan bo'lsa-da, bu tushuncha zamonaviy feministik va gender tadqiqotlarida eskirgan deb hisoblanadi. Genderni biologik jinsning hosilasi sifatida tushunishni tanqid qilib, zamonaviy tadqiqotlar bu ikkala toifani ham bir-biri bilan murakkab o'zaro ta'sirda bo'lgan ijtimoiy tuzilmalar sifatida ko'rib chiqadi. Biroq, feministik nazariya, postfeminizm, gender psixologiyasi, gender sotsiologiyasi va lezbiyen falsafasining turli oqimlarida „gender“ atamasini talqin qilishda farqlar mavjud.<sup>1</sup>

Genderning asosiy ma'no mazmuni ana shulardan iborat deyishimiz mumkin, lekin, uning keng ma'nolari ham bor. Ayollar va erkaklar tengligini ta'minlash, deb qayta qayta hamma joylarda barilla aytilmoqda. Hattoki, bu to'g'risida har bir davlat alohida qonunlar ishlab chiqargan. Buning asosiy sababi nimada? Erkaklar ayollarga nisbatan kuchliroq bo'lganligi uchun, ayollar zaifa, ojiz qilib yaratilganligi sababli ba'zi bir erkaklar o'z ahli ayoliga, to'g'ri muomilada bo'lmasligidir. Bu har davlatda juda katta muommo tug'dirgan. Ayollarga faqat nasl qoldiruvchi jonzot sifatida qarash juda noto'g'ri qarashlardir. Ular joziba, go'zallikdir. Ular erkaklarning hayotiga mazmun va rang baxsh etadilar.

Gender tengligi insonning eng muhim huquqlaridan biri bo'lib, jamiyatda tinchlik va totuvlikni ta'minlash, barqaror rivojlanish asosida inson salohiyatini to'liq ro'yobga chiqarishda muhim o'rin tutadi. Albatta, buning asosiy maqsadi aniq. Rivojlanish uchun sharoitlar va turtkilarga sababchi bo'ladi. Jamiyatdagi barqarorlikni ta'minlashgayam bevosita hissasini qo'shib qoladi. Hammasining asl maqsadi jamiyatni rivojlantirishdir.

Gender tengligi barchaga, ham erkaklar, ham ayollar uchun foydalidir. Hech kim ma'lum bir gender roliga majburlanmasligi kerak. Gender stereotiplari erkaklar va

<sup>1</sup> <https://uz.wikipedia.org/wiki/Gender>

ayollar uchun "mos" deb hisoblangan xatti-harakatlar haqidagi zararli g'oyalarni davom ettiradi va gender tengligi uchun to'siq bo'ladi.

Gender tengsizligi ham zo'ravonlikka olib kelishi mumkin. Evropa Kengashining ayollarga nisbatan zo'ravonlik va oiladagi zo'ravonlikning oldini olish va unga qarshi kurashish bo'yicha konventsiyasi (Istanbul konventsiyasi deb nomlanadi) Tashkilotning gender asosidagi zo'ravonlikka qarshi kurash va gender tengligini targ'ib qilish bo'yicha asosiy hujjatidir. Konventsiya jamiyatning barcha a'zolarini, ayniqsa erkaklar va o'g'il bolalarni gender asosidagi zo'ravonlikning barcha shakllarining oldini olishga faol hissa qo'shishga chaqiradi. Yevropa Kengashining Gender tengligi strategiyasi ham erkaklar va o'g'il bolalarni gender tengligini targ'ib qilishga undaydi. Yaqinda Parlament Assambleyasi o'z rezolyutsiyasida gender asosidagi zo'ravonlikka barham berishda erkaklar va o'g'il bolalarning muhim roli va mas'uliyatini ta'kidladi.<sup>2</sup>

Yuqoridagi fikrlarda ham gender tengsizlikni yuzaga kelishidan paydo bo'ladigan muommolar haqida gapirib o'tdik. E'tib berib qaraydigan bo'lsak hamma joyda ayollar va erkaklar tengligini ta'minlash to'g'risida fikrlar tarqalgan. Bu qanchalik to'g'ri? Agar ayollar va erkaklar tengligini ta'minlaydigan bo'lsak, ayollar ham tog'-kon sanoat ishlarida ishlashi kerak. Erkaklar bilan bir xil ish vaqtga jalb qilinishlari, erkaklar qiladigan og'ir mehnatlarni qilishlari kerak. Ish soatlari ham xuddi shunday. Ba'zi bir erkinliklar olib tashlanadi. Bu bir-biriga to'g'ri kelmaydigan fikrlar jamlanmasi. Ayollar nozik hilqat egalari. Biz ularni asrashimiz, ardoqlashimiz kerak. Shuning uchun ko'plab erkinliklar va qulayliklar yaratib berilishi kerak deb hisoblayman. Tenglik xususiga keladigan bo'lsak... Erkaklar va ayollar o'rtasida adolatni shakllantirishimiz kerak, tenglikni emas. Ana shunda hozirda qilayotgan ishlarimiz, chiqarilayotgan qonunlarimiz o'z ma'no-maqсадini anglagan bo'ladi. Adolat deyishimdan sabab nima? Adolat va tillarda bor deyishingiz mumkin. Lekin, chinakkam adolat har bir sohani tubdan o'zgartirib rivojlanish sari olib chiqishi mumkin. Ayollarga adolat qilishimiz esa, ularni jismoniy qobiliyatlaridan, ijtimoiy kelib chiqishidan paydo bo'ladi. Ayollar erkaklarga qaraganda kam soat ishlashlari nima uchun? Ular bir vaqtning o'zida ham xodim, ham rahbar, turmush o'rtoq, ona kabi rollarni bajaradi. O'ylab ko'rining bir vaqtning o'zida shuncha rollarni bajarish osonni. Yoki jismoniy mehnatlar, ayollarga to'g'ri kelmasligi aniq, yuqorida ta'riflaganimdek ular nozik hilqat egalari. Jismoniy holatlari to'g'ri kelmaydi. Buning turg'un holatini ta'minlash uchun ayollar va erkaklar o'rtasidagi adolatni shakllantirishimiz kerak.

Yuqorida adolat haqida to'xtalib o'tdik. Lekin u haqida ma'lumot bermadik, endi adolatni ham ko'rib chiqsak:

<sup>2</sup><https://www.coe.int/ru/web/portal>

Adolat — ijtimoiy-falsafiy, ahloqiy va huquqiy tushuncha. Kishilar ijtimoiysiyosiy ongida katta rol o‘ynaydi. Muayyan ijtimoiy guruhlar va ayrim shaxslarning tushunchalarini o‘zida aks ettiradi. Siyosiy xatti-harakatlar, huquq va burch me‘yorlari, axloqiy munosabatlar, mehnat va taqdirlanish, jinoyat va jazo, xizmat va uni tan olish, qadr-qimmatni e‘tirof qilish va hokazoga mazkur tushuncha orqali baho beriladi<sup>3</sup>

Kishilarning axloqiy xatti-harakatlarini bevosita boshqaradi va muayyanlashtiradi. Huquq va erkinliklar turg‘unligini ta‘minlaydi. Qonun jihatidan esa konstitutsion burch va majburiyatlarni ham shular bilan bir qatorda e‘tirof etadi deyishimiz mumkin, yoki huquq va erkinliklarni ta‘minlovchi vosita sifatida namoyon bo‘ladi.

Ijtimoiy adolatga keladigan bo‘lsak:

Ijtimoiy adolat – jamiyatning moddiy va ma‘naviy rivojlanish darajasi bilan ob‘ektiv ravishda belgilanadigan, lekin ideal sifatida, odamlar o‘rtasidagi munosabatlarning oliy prinsipi sifatida sub‘ektiv baholanadigan kishilar, ijtimoiy guruhlar, qatlamlarning hayotiy vaziyatidagi tenglik o‘lchovidir.

Bir so‘z bilan aytganda, shaxsga nisbatan har qanday kamsitishlar to‘xtab, huquq va imkoniyatlar tengligi tasdiqlanganda ijtimoiy adolat amalga oshadi.<sup>4</sup>

Xulosa qilib shuni ta‘kidlashim joizki, erkaklar va yollar o‘rtasida tenglikni emas adolatni ta‘minlashimiz kerak. Jamiyatimizni barqaror va turg‘unlashtirish o‘zaro adolat kayfiyatini uyg‘otish uchun biz erkaklar va ayollar tengligini emas ular o‘rtasidagi adolatni ta‘minlashimiz kerak. Ana shundagina gender tenglikning asosiy mohiyatini anglagan bo‘lar edik. Va albatta, jamiyatimiz rivoji uchun qo‘yilgan bir qadam sifatida tan olsak maqsadga mubolag‘a bo‘lmaydi.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. <sup>1</sup> <https://uz.wikipedia.org/wiki/Gender>
2. <sup>1</sup> <https://www.coe.int/ru/web/portal>
3. Исмоил Саифназаров, & Сирожбек Ҳабибуллаевич Султанов (2022). ИЖТИМОЙ АДОЛАТНИ МУСТАҲКАМЛАШДА ИЖТИМОЙ ТАДБИРКОРЛИКНИ УСТУВОР ЖИҲАТЛАРИ. Academic research in educational sciences, 3 (TSTU Conference 1).
4. <https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Adolat>
5. <https://cyberleninka.ru/article/n/ijtimoiy-adolatni-tushunishga-zamonaviy-yondashuvlar>

<sup>3</sup> <https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Adolat>

<sup>4</sup> <https://cyberleninka.ru/article/n/ijtimoiy-adolatni-tushunishga-zamonaviy-yondashuvlar>